

## APPENDITSIT KASALLIGI

*Botirova Malohat Iqboljon qizi**Beshariq Abu Ali ibn Sino nomidagi**Jamoat Salomatligi Texnikumi o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ko'r ichakni chugalchangsimon o'simtasining yiringli yal lig'lanishi – appendisit deyiladi. U chugalchangsimon o'simtaga ichak lardan, qon va limfa tomirlari orqali infeksiya kirishi sabab bo'ladi. Najas toshlari yoki ichak parazitlari ham kasallikni keltirib chiqarishi mumkin. Appendisitning o'tkir va surunkali turlari farqlanadi. O'tkir appendisit quyidagilarga bo'linadi. 1. Kataral – o'simta devorlari shishib, nuqtasimon qon quyiladi. 2. Flegmonoz – o'simtaning keskin qalinlashuvi, yuzasida fibrinoz parda, bo'shlig'ida yiringli suyuqlik bo'lishi kuzatiladi. 3. Gangrenoz – o'simta shalvirab, bo'shlig'ida to'q rangli, qo'ramtir, yiringli suyuqlik bo'lishi kuzatiladi. Surunkali appendisitda o'simta bo'shlig'i bitib, o'simta chandiqli o'zgargan bo'ladi. Appendisit o'ng yonbosh sohasida og'riq bo'lishi bilan xarakterlanadi. Ba'zan og'riq kindik sohasiga, so'ngra yonbosh sohasiga o'tib, ko'ngil aynishi va qusish bilan kechadi. Bundan tashqari, qator klinik simptomlar ham bo'ladi. Sitkovskiy simptomi – bemor chap biqinini bosib yotganida o'ng yonboshi sohasida og'riq paydo bo'ladi. Rovzing simptomi – chap yonbosh sohasi kaft yoni bilan bosilsa, o'ng yonbosh sohasida og'riq bo'ladi. Bundan tashqari, Shetkin–Blumberg simptomi musbat, o'ng yonbosh sohasi qorin mushaklarining taranglashishi, haroratning ko'tarilishi, leykositlar miqdorini 12 000–20 000 gacha ko'tarilganligi qayd qilinadi. O'simta yorilganda peritonit kelib chiqadi.

**Kalit so'zlar:** Etiologiya, Patogenezi, Epidemiologiyasi, Patogenezi, O'tkir va surunkali appendisit, Sitkovskiy simptomi, Rovzing simptomi, Shetkin-Blumberg simptomi.

**Dolzarbligi.** Appendisit - bu shoshilinch tibbiy yordamni talab qiladigan favqulodda holat. Bundan tashqari, qorin bo'shlig'idagi jarrohlikning eng keng tarqalgan sababidir. Appendisit har qanday yoshda paydo bo'lishi mumkin va erkaklar ham, ayollar ham teng darajada ta'sir qiladi. Biroq, 15 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan erkaklarda biroz ko'proq tarqalgan. So'nggi tadqiqotlar g'arbiy mamlakatlarda appendisit bilan kasallanish holatlari kamayganini ko'rsatdi. Osiyo va Afrika mamlakatlarida kasallanish kamroq bo'lishi mumkin. Ammo bu mamlakatlarning haqiqiy raqamlari mavjud emas.

**Appendisit** — appendiks, ya'ni ko'richak chugalchangsimon o'simtasining nospetsifik yal lig'lanish kasalligi. Kasallik belgilari odatda qorinning pastki o'ng tomonida og'riq, ko'ngil aynishi, qusish, og'iz qurishi va ishtahaning pasayishi

ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Biroq, taxminan 40 % holatlarda bunday tipik belgilar paydo bo‘lmasligi ham mumkin. Apendiks yorilishi og‘ir asoratlar: qorin parda ichki qavatining keng, tarqalgan, og‘riqli yallig‘lanishi va sepsisga olib kelishi mumkin.

### **Sabablar**

• Oshqozonda to‘liq hazm bo‘lmaydigan anor,limon urug‘I kabi oziq-ovqat qoldiqlarining ingichka ichakdan yo‘g‘on ichakka o‘tayotganda appenditsitga o‘tishi.

- Oshqozon yarasi va yarali kolit.
- Shishlar.
- Ichak qurtlari,qurtlar va parazitlar.
- Genetik moyillik.
- Bakterial infeksiyalar,ichak infeksiyalari.
- Viruslar,zamburug‘lar va boshqalar.

### **Appenditsit belgilari**

Appenditsit simptomlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

• Qorinning pastki o‘ng qismida qo‘l bilan bosilganda og‘riq,pichoq sanchiganday seziladigan va odamni egilib qoladigan o‘tkir og‘riq,vaqt o‘tishi bilan og‘riqning kuchayishi.

- Ko‘ngil aynishi va qayt qilish.
- Quruq og‘iz vat il,ishtahani yo‘qolishi.
- Kindik atrofidagi o‘tkir og‘riq.
- Ovqat hazm qilish buzilishi,ich qotishi yoki diareya.
- Yuqori isitma.
- Ter yurak urishi.
- Homilador ayollarda appenditsit og‘rig‘i lateral yoki orqa mintaqada ko‘rinadi.

### **Diagnostika**

Appenditsitni davolashni aniqlash uchun shifokor quyidagi tekshiruvlarni o‘tkazadi:

- Fizikaviy tekshiruv
- Qon tekshiruvi
- Homiladorlik testi
- Tos suyagi imtihoni
- CRP yoki C-reaktiv
- Siydik sinovi
- Jigar funksiyasi testlari
- Qorindagi ultratovush

### **Appenditsitni davolash**

Appenditsitni davolash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Jarrohlik davolash(asosiy usul)-appendektomiya
- Dori vositalari-antibiotiklar,og'riq qoldiruvchi dorilar va suyuqliklar.

### **Xavf**

Appenditsitni o'z vaqtida davolamaslik quyidagilarga olib kelishi mumkin:

- Appendiks yorilishi(perforatsiya)
- Peritonit(qorin pardasining yallig'lanishi)
- Absess(yiring to'planishi)
- Sepsis (qon zaharlanishi)
- Ichak faoliyatining buzilishi.

### **Xavf guruhi**

Appenditsitning xavfi guruhiga quyidagilar kiradi:

- Yoshlar(10-30 yosh)
- Noto'g'ri ovqatlanadiganlar
- Qabziyat(ich qotishi)borlar
- Immuniteti past odamlar
- Ichak infeksiyasiga tez-tez chalinadiganlar

### **Oldini olish**

Appenditsitni oldini olish uchun bemorlarga quyidagilar tavsiya etiladi:

- To'g'ri ovqatlanish
- Yetarli suyuqlik ichish
- Faol turmush tarsi
- Qabziyatni oldini olish
- Gigiyena qoidalariga rioya qilish
- Sog'likni nazorat qilish

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. "Anatomiya,fiziologiya va patologiya" A.G'. Ahmedov,G.X.Ziyamutdinova
  - 2." Odam anatomiyasi A.Ahmedov
- Internet ma'lumotlari:
  - [www.med.uz](http://www.med.uz)
  - [www.minzdrav.uz](http://www.minzdrav.uz).